SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 1(4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

## БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:


*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор,

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна –

т

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” масъулияти чекланган жамияти.

## МУНДАРИЖА

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li*
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism)......9-14

*Mirzayev Avazbek*
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI ......15-21

*Алиджанова Лазизахон Аббасовна*
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР ......22-28

*Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li*
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA IMPERIYALARI RAQOBATI ......29-34

*Джалолов Бахром Джамолович*
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА "ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ" СИЁСАТИ ВА БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ ......35-39

*Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna*
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR SIYOSATI ......40-45

*Ochilov Farhod*
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMOYA QILISHDAGI FAOLIYATI ......46-52

*Ҳамроева Нодира Нормуродовна*
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОИЙ МУОММОЛАР ......53-58

*Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ ......59-65

*Tursunov Ravshan Normuratovich*
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR ......66-71

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи*
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ МОДЕЛИ ......72-78

*Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich*
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI ......79-90

*Shanazarova Nilufar Baratovna*
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI ......91-99

*Рахимов Ойбек Бахтиёрович*
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МОХИЯТИ ......100-109

*Болтаев Нурали Шираматович*
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 110-118

*Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович*
ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ ........ 119-124

*Жураева Гульзира*
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ........ 125-130

*Akbarov Husan O‘zbekxonovich*
BOG‘DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA NOPARAMETRIK USULLARI ........ 131-136

*Yaqubova Yulduz Raimovna*
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH KO'RSATKICHLARI ........ 137-147

*Рахимбаев Акмал Азатбоевич*
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР БЎЙИЧА АНИҚЛАШ ........ 148-157

*Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li*
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O‘TISHNING ASOSIY SHARTI ........ 158-170

***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна*
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОИЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН АЛЛОМА ........ 171-175

*Шарифходжаева Наргиза Абдуманноновна*
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА АЛИ ДЖИННЫ ........ 176-181

*Nasimov Azizbek Azimovich*
AXBOROTLASHGAN JAMIYAT RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY MOHIYATI ........ 182-186

*Norkulov Olim Nasimovich*
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSIYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA TA’SIRI ........ 187-191

*Хасанов Бобуржон Хакимович*
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 192-197

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*
YANGI O’ZBEKISTON VA IJTIMOIY DAVLATCHILIK ........ 198-204

*Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o’gli*
SIVILIZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO‘QNASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI (Samyuel F. Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to’qnashuvi” asari asosida) ........ 205-214

*Shukurov Orif Jumaboyevich*
JAMIYATDA YOSHLARNING IJTIMOIY AKTIVLIGINI OSHIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI ........ 215-219

**10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Akhmedov Oybek Saporbayevich*
THEORETICAL OVERVIEW OF THE DEFINITION “TERM” AND “TERMINOLOGY” IN LINGUISTIC SURVEYS ........ 220-227

*Равшанова Гулрухбегим Қаҳрамон қизи*
ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ ........ 228-232

*Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna*
AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIIY ADABIYOTDAGI TALQINI ........ 233-237

*Uliqova Mavludaxon*
“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON BO’LISHI ........ 238-243

*Rahmonov Asror ibni Nusrat*
HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O’RNI ........ 244-252

*Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna*
SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI ........ 253-258

*Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR ........ 259-265

*Vokhidova Tamanno Saidjonovna*
MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION ........ 266-271

*Djurayeva Shahlo G’ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna*
INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIIY SEMANTIKASI ........ 272-277

**12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Uzakova Go‘zal Sharipovna*
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “YASHIL QURILISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY MASALALARI ........ 278-286

*Мирзаев Шухрат Шавкатович*
СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ ........ 287-293

*Qosimov Botirjon Ma’rufjon o‘g‘li*
SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL ........ 294-301

*Islombek Abdikhakimov*
QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES ........ 302-309

*Ходжаева Ширинхон Олимхон кизи*
ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ СИСТЕМЕ ........ 310-315

*Jiyenbayev Baxadir Ospanovich*
EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA’MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ........ 316-322

*Алишаев Собир Турсунбоевич*
СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҚАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 323-329

*Адембаев Аралбай Куралбаевич*
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ ........ 330-339

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников*
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ ........ 340-346

*Xajiyeva Iroda Adambayevna*
TALABALARGA ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 347-351

*Ayatov Raximberdi Ibragimovich*
XORIJIY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO‘Z VA IBORALARNI O‘QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH ........ 352-357

*Saidova Dilobar Ikrambayevna*
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI ........ 358-361

*Eshqobilov Elmurod Menglimurod o’g’li*
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO’LAJAK JISMONIY TARBIYA O’QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI ........ 362-367

*Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна*
ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ........ 368-375

*Janonova Sitora Berdinazarovna*
TA’LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O‘RNI ........ 376-381

*Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи*
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА ........ 382-387

*Bakhadirova Shoxina Nadir kizi*
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO‘RINISHDA O‘QITISH ........ 388-392

*Qurbonova O‘lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna*
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI ........ 393-397

*Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi*
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI ........ 398-403

## 07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ

**Mustafoyev Abubakr Muhiddin oʻgʻli**
Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik va islom sivilizatsiyani oʻrganish
ICESCO kafedrasi tayanch doktoranti
mustafoev.abubakr@bk.ru

# XIII VA XIV ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI TAVSIFI (1-qism)

**Annotatsiya.** Abu Hanifa Noʻmon ibn Sobit va u kishining shogirdlari hanafiy mazhabiga asos solgach, ulardan keyin kelgan Dabusiy, Saraxsiy va Bazdaviydek mutaqaddim faqihlar mazhab asoschilari joriy qilgan qoidalarni jamlab usul qoidalari majmuini yaratishdi. Maqolada soʻz yuritiladigan Abdul Aziz Buxoriy, Bobirtiy, Kokiy singari mutaaxxir olimlar esa oʻzlaridan oldingi mutaqaddim faqihlarning joriy qilgan qoida va tamoyillari atroflicha yoritib berishdi. Ularni dalillab, eng sahih qovllar bilan quvvatlab sharhlashdi. Eng asosiysi bu ma'lumotlarni eng loyiq bob va boʻlimlarga taqsimlab, hanafiy mazhabi usul al-fiqh ilmini ta'lim beradigan tengsiz asarlarni yozib qoldirishdi. Mazkur maqolada Hanafiy mazhabining mana shunday soʻnggi avlod eng zabardast yetti usul olimi haqida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** Hanafiy mazhabi, usul al-fiqh, alloma, al-Buxoriy, Hidoya, Bazdaviy, asar.

**Mustafoyev Abubakr Muhiddin ugli**
International islamic academy of Uzbekistan
Chair of “Islamic studies and study of Islamic Civilization
Icesco” foundation doctoral student

# DESCRIPTION OF BUKHARA FAQĪHS WHO LIVED IN THE 13TH AND 14TH CENTURIES AND THEIR WORKS (Part 1)

**Abstract.** After Abū Ḥanīfah Nuʿmān ibn Thābit and his students founded the Ḥanafī madhhab, the later jurists such as Dabūsi, Sarakhsī and Bazdawī created a set of usul rules by combining the rules introduced by the founders of the madhhab. Famous scholars such as ʿAbd al-ʿAzīz Bukhārī, Bobirti, and Koki, who are mentioned in the article, explained in detail the rules and principles introduced by their predecessors. They proved them and interpreted them with the most authentic arguments. The most important thing is that they divided this information into the most appropriate chapters and sections and wrote down incomparable works that teach the science of the Ḥanafī school of uṣūl al-fiqh. This article talks about the seven most outstanding scholars of the last generation of the Ḥanafī madhhab.

**Key word:** Ḥanafī madhhab, uṣūl al-fiqh, faqīh, Bukhārī. , Hidāyah, Bazdawī, work

**Мустафоев Абубакр Мухиддин угли.**
Международная исламская академия Узбекистана.
Кафедра ICESCO по исламоведению
и изучению исламской цивилизации.
Основной докторант

# ОПИСАНИЕ БУХАРСКИЕ ФАКИХИ, ЖИВШИХ В XIII И XIV ВЕКАХ, И ИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ (Часть 1)

**Аннотация.** После того, как Абу Ханифа, Номан ибн Сабит и его ученики основали ханафитский мазхаб, более поздние правоведы, такие как Дабуси, Сарахси и Баздави, создали свод правил усула, объединив правила, введенные основателями мазхаба. Известные ученые, такие как Абдул Азиз Бухари, Бобирти, Коки, которые упоминаются в статье, подробно объясняли правила и принципы, введенные до них ранними правоведами. Они доказывали их и интерпретировали с помощью самых достоверных аргументов. Самое главное, что они разделили эту информацию на наиболее подходящие главы и разделы и записали несравненные труды, преподающие науку ханафитской школы усул-уль-фикх. В данной статье рассказывается о семи самых выдающихся ученых последнего поколения ханафитского мазхаба.

**Ключевые слова:** Ханафитский мазхаб, усуль аль-фикх, аллама, аль-Бухари, Хидая, Баздави, работа.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N01

**Kirish.** Faqihlarning bir necha avlodlarining olib borgan faoliyatlari tufayli Movarounnahr maktabining an’analari va uning namoyondalari asarlari hanafiylik mazhabida boʻlgan turli mintaqalarda keng tarqaldi. Movarounnahrlik mualliflarning asarlari fiqh amaliyotida qoʻllanma sifatida ham, talabalarni oʻqitishda darslik sifatida ham foydalanildi.

Mana shunday allomalardan biri Ramazon ibn Husayn ibn Qutlugʻ Oboh. Soinuddin edilar.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** *Ramazon ibn Husayn ibn Qutlugʻ Oboh. Soinuddin* (dinni qoʻriqlovchi, dinni saqlovchi), Abul xoyr, Surmoriy, Turkistoniy, Turkmoniy [11; B.873]nomlari bilan mashhur alloma 614 hijriy yilda Surmorda(Aslida “Surmoro”, bir nusxada “surmor”) [12; B.82.]tavallud topgan.

Abul Hajjoj Yusufdan hadis rivoyat qilgan. [8; B.204.] Faqihlik darajasiga yetgan olim bir muddat Qohira dagi Suyufiyya madrasasida tahsil olgan. 675-yil sha’bon oyining 4-sanasida Abyor[1]da vafot etgan. Vafotidan toʻqqiz kun oʻtgach dengizdan “Bobun nasr” qabristoniga keltirilib, yuvilib shu joyga dafn qilingan.

السرمارى – س zammalik س, sukunlik ر, fathali م bilan oʻqiladi. Buxoro qishloqlaridan bir qishloq nomi. [9; B.205.]

**Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Said Ahmad ibn Abul Xattob Muhammad ibn Ibrohim ibn Ali Ka’biy, Tabariy, Qozi, Buxoriy,** Hujjatul islom. [3; B. 51.] [2; B.441.] [10; B.1778.] [2; B.1708.] Imomning oʻgʻli imomning oʻgʻli imomning oʻgʻli imom, olimlar raisi.[9; B.33.] 604-hijriy yilda Buxoroda vafo etgan. Otasi Ahmad [7; B.74.], bobosi Abu Said Ahmad [7; B.172.]va Abul Xattob katta bobosi hisoblanadi. Muhammad Ibrohim ibn Ali esa kuniyasidir. [7; B.1922.]

“Mulaxxos” (qisqartirilgan xulosa) deb nomlangan fatvoga doir asar yozgan. [9; B.33.] Abu Shujoʻ Bistomiy va Sayyid Abu Bakr Muhammad ibn Abu Bakr Haddodiylardan hadis rivoyat qilgan. [9; B.33.]

Bu olim haqida Abul Fazl Ahmad ibn Shaydiy (Bir manbada “Sukriy”.) [11; B.356.] oʻz ustozlari haqida gapirganda bu olimni ham sanab oʻtgan. “Xorazmga elchi boʻlib kelganlarida fatvoga doir oʻz qalamiga mansub “Mulaxxos” kitobini oʻqib tugatdim”, deb aytib oʻtgan. [9; B.33.]

[1] Bir nusxada “Anbor”.

**Muhammad ibn Said ibn Mutohhir ibn Said.** [10; B.2012.] 625-hijriy yilning 5-robiul avvalida, yakshanba kuni tavallud topgan. [9; B.162.] Otasi Sayfiddin Boxarziy [9; B.616.] nomi bilan mashhur. Oʻzi esa Jaloliddin nomi bilan mashhur boʻlgan. Otasi qoʻl ostida tahsil olib, faqihlik darajasiga yetgan.

661-hijriy yilning 16-jumodul avvalida, chorshanba kuni, zavol paytida (quyosh tikka koʻtarilgan payt) shahid qilingan. Bu hodisa Buxoroga oʻn farsax[1] uzoqlikda joylashgan Kuvo ("Tabaqot as-saniyya"da "Qorakuliy" deb keltirilgan.)qishlogʻida sodir boʻlgan. [9; B.162.]

**Muhammad ibn Amr ibn Muhammad Abul Muzaffar Zahiriddin Navchaboziy** [13; B.821.] **Buxoriy**. [11; B.114.] [6; B.464.] [10; B.2196.] [2; B.1484.] Shamsul Aimma Kardariy va Muhammad ibn Muhammad ibn Amr Axsikosiylarning [8; B.1505.] qoʻl ostida ta'lim olib faqihlik darajasiga yetgan. [9; B.290.] Abul Abbos Ahmad ibn Saatiy undan ta'lim olgan. Abul Aloʻ Mahmud Faroziy va Shayx Qutbiddinlar undan hadis hadis eshitgan. 632-hijriy [9; B.291.] sanada Bagʻdodlik Qosim Birzoliyga ijoza bergan. "Talxis ul-quduriy" (1634-raqam ostida "Muxtasar ul-Quduriy" deb keltirilgan.) yozgan asarlari sarasiga kiradi. [2; B.1634.]

**Muhammad ibn Muhammad ibn Ibrohim Husayniy Sayyid Sharif Jamoliddin.** Hofizuddin[2] bilan birgalikda Shamsul Aimma Kardariy [8; B.1515.] qoʻl ostida ta'lim olib faqihlik darajasiga yetgan.

**Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr Imom Hofizuddin Buxoriy** Abul Fazl. 615-hijriy sanada Buxoroda tavallud topgan. Shamsul Aimma Muhammad ibn Abdusattor Kardariy qoʻl ostida faqihlik darajasiga yetgan. Adab va boshqa ilmlarni ham u kishidan oʻzlashtirgan. Abul Fazl Ubaydulloh (Bir nusxada "Abdulloh".) [8; B.891.] ibn Ibrohim Mahbubiydan ham ilm olgan. Abul Aloʻ Buxoriy Hofizuddin Buxoriyning shogirdi boʻlib, ustozlari haqidagi toʻplamida u haqida quyidagicha aytib oʻtgan: "693-yil sha'bon oyining ikkinchi yarmida, Buxoroda vafot etdi. Kalobozda otasi va Imom Abu Bakr Tarxon oldida koʻmildi". "Hofizuddin Buxoriy Abul Fazli mom, olim, zohid, obid, muftiy, mudarris va koʻpgina ilmlarni oʻzida jamlagan muhaddis, muhaqqiq qozi edi", deb keltiradi.

**Muhokama.** *Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn ibn Ahmad ibn Qosim ibn Musayyib ibn Abdulloh ibn Abdurrohman ibn Abu Bakr Siddiq ibn Abu Quhofa Hoshimiy.* Mavlono Jaloliddin Qovnaviy [10; B.2283.] nomi bilan mashhur boʻlgan. Hanafiy mazhabining zabardast faqihlaridan hisoblangan.

Farzandi Mavlono Bahouddin [8; B.235.] ham oʻz davrining yetuk faqihlaridan boʻlgan.

Bir qancha ilmlarni oʻzida jamlagan zamonasining imomi boʻlgan. Mashhur imom, "Sharh muqaddima ibn Hojib", "Miftah" (Sakkokiyning asarlariga kirishuvchilar uchun yozilgan) asarlari muallifi Shayx Qutbiddin Sheroziy Mavlono jaloliddin Qovnaviy ziyoratlari uchun keladi. Huzurlariga kirib, izn boʻlib oʻtirganlaridan keyin Mavlono bir muddat sukut saqlaydi. Shayx ham gapirmaydilar. Shundan soʻng Mavlono Qovnaviy soʻz boshlab bir hikoyani aytib beradi.

"Buxoroning katta olimi Sodri Jahon [8; B.1382.] madrasadan chiqib oʻz bogʻi tomon borayotganida, masjid oldida turgan tilanchi oldidan oʻtdi. Tilanchi soʻrganida hech narsa bermay oʻtdi. Tilanchi ikki yildan koʻproq shu joyida turgan boʻlsada, Sodri Jahonni biror marta sadaqa berganiga guvoh boʻlmadi. Bir kuni tilanchi Sodri Jahon kelayatganini koʻrib, sheriklariga: "Ustimga kiyim tashlab meni oʻlgan deb bildiringlar", dedi. Sodri Jahon oʻtib

[1] Masofa oʻlchov birligi, 6 km.

[2] Abul Fazl Muhammad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoriy (vaf. 693)

ketayotganda tilanchining sheriklari: “Ey sayyidimiz bu oʻldi”, deyishganda, Sodri Jahon bir ikki dirhamni olib uni oldiga qoʻydi. Tilanchi turib, ustidagi kiyimni olgach Sodri Jahon unga qarata: “Haqiqattan oʻlgan boʻlganingda senga hech narsa bermagan boʻlar edim”, deb aytadi”.

Mavlono Qovnaviy hikoyani tugatgach Shayx Qutbiddin u kishining huzuridan chiqib ketadilar. Chunki Mavlono Qovnaviy Shayx Qutbiddin uni imtihon qilish uchun kelganini anglab yetgan edi. Shayx esa Mavlono buni bir ogʻiz gapirmagan boʻlsada fahmlaganini anglab yetib chiqib ketgan.

Mavlono Jaloliddin umrining oxirida kitob yozish [10; B.2285.] va boshqa ishlarini tark etib insonlardan ajrab chiqqan va tarki dunyo qilgan. Bunga sabab kunlardan bir kun Mavlono Qovnaviy oʻz uyida, hashamat ichida, shogirdlari atrofida boʻlgan holda turganida mashhur Imom Shayx Shamsiddin Tabriziy [9; B.345.] kirib keladi. Salomlashib oʻtirgach, atrofidagi hashamatga ishora qilib “bu nima?”, deb soʻrganda, Mavlono Shayxga qarata: “Bular siz bilmaydigan narsalar?”, deb aytadi. Mavlono gapini tugatib tutatmas butun uy va hashamat olov ichida qoladi. Mavlono dahshatga tushib, hayratlanib Shayxga qarata “bu nima?”, deb soʻrganda, Shayx: “Bular siz bilmaydigan narsalar?”, deb turib ketadi. Shundan soʻng Mavlono Qovnaviy doimo yolgʻiz qolish payida boʻladi. Hashamatni, doimo talabalari e’tiborida boʻlishni, farzandlarini tark etadi. Shaharlar kezib darvishona hayot kechiradi. Mavlono Jaloliddin hayotining soʻngida suiqasd qilinib, vahshiylarcha oʻldirilgan. Mavlono Jaloliddin Qovnaviy 672-yil 5-jumodul oxirda vafot etgan.

**Natijalar.** *Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Idiy Buxoriy.* Faqih Buxoroning “Nur” [13; B.822.] qishlogʻida qurbonlik hayiti kunida tavallud topgan. Oʻzi, otasi va bobosi ham hayit kunida tugʻilgani uchun “idiy” nisbati berilgan. Oʻz zamonasining hurmatli olimlaridan. Qohiraga koʻchib borgan. Hujjatul islom [9; B.349.] Shayx Abu Hayyon garchi eshitmagan boʻlsalarda, ahli hadis mazhabining quyidagi daliliga koʻra

علم الحديث وسيلة مقبولة    عند النبى الأبطحى محمد

فاشغل به أوقاتك البيض التىملكتها تشرف بذاك وتسعد

Tarjima: ijoza oʻlaroq: “Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Iydiy Solihiyyadagi uyimizda soʻzlab bergan”. “Imom, olim Sayfiddin Abul Maoliy Said ibn Mutohhir ibn Said Saffor Boxarziy aytib bergan”, deb ulardan rivoyat qilgan.

Shayx Qutbiddin oʻzlarining “Tarix” asarlarida Muhammad Iydiy haqida aytib oʻtgan.

**Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Quboviy.** Margʻinonda yashagan. Sahamsul Aimma Kardariy qoʻl ostida faqihlik darajasiga yetgan [9; B.350.] . Usul ilmini Axsikosiydan oʻrgangan. “Jomeul Kabir”, “Nazmul jome us-sagʻir” nomli asarlar yozgan. Xilof[1] ilmini mukammal bilgan. Jadal[2] ilmida zabatdast boʻlgan. Buxoro va boshqa yurtlarda javobi topilmagan mushkul masalalar unga yuborilgan. 730-yilda vafot etgan (Javohir al-muziyyada 726-sana deb keltirgan.). [1; B.571.] [9; B.354.]

**Said ibn Mutohhar ibn Said Boxarziy Abul Maoliy.** [8; B.225.] Sayfiddin nomi bilan tanilgan olim Buxorodagi Fanxobod[3]degan joyda tavallud topgan. Shamsul Aimma Kardariy qoʻl ostida faqihlik darajasiga yetgan.[13; B.1451.] [9; B.916.] 659-yil zulqa’da oyining 25-sanasida, shanba kuni vafot etgan.

---

[1] Xilof ilmi – shar’iy fikrlardagi tafovutlar, muhokama va natijalarning holati va shubhalarni daf qilish haqida bahs yuritadigan ilm. https://www.bukhari.uz/?p=15809&lang=oz

[2] Dialektika ilmi

[3] Hozirgi Fathobod mavzesi

**Xulosa.** Buyuk mazhablar asoschilari oʻzlari ijtihod qilgan holda boshqalarni ham ijtihod qilishga chorladilar. Ular hech qachon ijtihod eshigi yopilgan deb aytmaganlar. Bunday fikr ulardan keyin kelgan va ularga nisbatan ilmi kam va shaxsiyati kichik boʻlgan olimlar tomonidan bildirilgan.

Bu borada oxirgi davr olimlarining tutgan yoʻli ijtihod eshigi asrlardan buyon yopilgan deb biluvchi kishilar yoʻnalishidan ustun turadi. Takliflar (hayotdan kelib chiqadigan zaruratlar) eshigi ochiq turgan holda ijtihod eshigini yopish xatodir

Sahobalar davridan keyin shaharlar kengayib, mujtahidlar koʻpaygandan soʻng ham ijmo qilish mumkinmi, degan savolga koʻpchilikning fikricha «mumkin» deb javob beradi. U, bunday deb qoʻshimcha qiladi: «Menimcha har bir mamlakat keng koʻlamli ilmu madaniyat namoyandalari boʻlgan oʻzining eng yaxshi vakillarini tanlab olib, ulardan islom majlisi (kengashi) tuzilishi kerak. Bunday majlis islomiy nasslarni tekshirib, musulmon jamoalari muammolari va ehtiyojidan kelib chiqib, ularning sharoitlarini bilib olgandan keyin oʻz fatvolarini chiqaradi.

Shunday kengash mavjud boʻlganda edi, biz undan banklar, aksiyalar va boshqa koʻp muammolar haqida fatvo soʻrardik

Shunday qilib, soʻnggi yillarda islom huquqi olimlari islom qonunchiligiga tegishli baʼzi bir huquqiy masalalarni qiyos, ijmo va ijtihoddan keng koʻlamda foydalanib, davr talabini nazarda tutgan holda zamonaviylashtirishga qaratilgan gʻoyalarni ilgari surib, oʻz asarlarini nashr etib kelmoqdalar. Ulardan eng taniqlilaridan Muhammad Said Ashmoviy (Misr), Muhammad Arkun (Jazoir), alJobiriya (Marokash), Abdullo anNaim (Sudan), Surush (Eron) ushbu sohaga doir bir qator asarlar mualliflari hisoblanadilar.

Abu Hayyon Tavhidiy Maskvayh (Maskuya)dan: «Nega bir faqih biror bir masalani halol deb hukm chiqarsa, boshqa bir faqih uni harom deb hukm qiladi», deb soʻraganda, unga: «Bu - zamon va makonning ixtilofidan kelib chiqadi, bir narsa bir zamon va makonda halol boʻlsa, boshqa bir zamon va makonda harom boʻlishi mumkin», deb javob bergan ekan.

Bugungi kunda islom qonunchiligi tizimidan, ayniqsa asrlar davomida buyuk faqihlarimiz ilmiy faoliyatlari natijasida xalqimiz urfodatlariga uygʻunlashtirilgan qoidalaridan davr talabini nazarda tutgan holda huquqshunoslik fanlari va qonunchilik tizimini rivojlantirish sohasida bir manba sifatida foydalanishimiz mumkin.

## Адабиётлар/Литература/References:


1. Hoji Xolifa. Kashf az-zunun. –J:1. – Bayrut: Dar ihyau turos al-arobiy, 1999.
2. Hoji Xolifa. Kashf az-zunun. –J:2. – Bayrut: Dar ihyau turos al-arobiy, 1999.
3. Ibn Qutlubgʻo. Toj at-tarojim. – Dar al-qalam, 1992.
4. Ismoil Posho Bagʻdodiy. Hadiyyat al-orifin. – Dar ihyo at-turos al-arobiy, 1951.
5. Ismoil Posho Bagʻdodiy. Iyzoh al-maknun. – Dar ihya at-turos al-arobiy, 1945.
6. Mahmud ibn Salmon. Kataibu aʼlam al-axyor. – Bayrut: DKI, 2018.
7. Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javohir al-muziyya. –J:1. – Daru hijr, 2007.
8. Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javohir al-muziyya. –J:2. – Daru hijr, 2007.
9. Muhiddin Abulvafo Qurashiy. Javohir al-muziyya. –J:3. – Daru hijr, 2007.
10. Taqiyuddin Abdulqodir Misriy. Tabaqot as-saniyya. – Dar ar-rifoiy, 1983.
11. Tosh Kubrozoda. Tabaqot al- fuqaho. – Zahro al-hadis, 1961.

12. Yoqut Hamaviy. Mu’jam ul-buldon. –J:3. –Bayrut: DKI, 2011.
13. Yoqut Hamaviy. Mu’jam ul-buldon. –J:4. –Bayrut: DKI, 2011.
14. Shamsiddin Zahabiy.Tazkirot al-huffoz. –J:4. – Dairot al-maorif al-Usmoniyya, 1958.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4I1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 1 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).